

RAHBARNING JAMOATCHILIK VA OTA-ONALAR BILAN ISHLASH MASALALARI

S.Y.Yuldasheva

(Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani, “Barkamol avlod” bolalar maktabi monitoring yurutuvchisi, ma’daniy omaviy tadbirlar tashkilotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola sifatli ta’lim berish, maktabning jamoatchilik bilan ishlash faoliyati, ta’lim muassasasi va uning ta’lim xizmatlariga qiziqishni orttiruvchi omillar, muvaffaqiyatli jamoatchilik bilan ishlash (pr) faoliyatining tamoyillarini ochib berish hamda tushuntirishga bag‘ishlanadi.*

Tayanch so‘zlar: *Ta’lim muassasasi, sifatli ta’lim, muvaffaqiyatli jamoatchilik, tamoyil, pedagog, o‘quvchi, pedagogik jamoa, ishchi xodimlar.*

Sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish ta’lim muassasasi faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlovchi omildir. Jamoatchilik bilan faol ish faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali muassasaning ommaviy aloqalarini rivojlantirish mакtabning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabning jamoatchilik bilan ishlash faoliyati. Ta’lim muassasasi va uning ta’lim xizmatlariga qiziqishni orttiruvchi turli axborot kanallarini yo‘lga qo‘yish. Ta’lim muassasasining obro‘yi va reyting darajasi oshishiga jamoatchilik e’tiborini jalg qilishga erishish. Jamoatchilik vakillari, ota-onalar, pedagog xodimlar va o‘quvchilar tomonidan ta’lim muassasasi faoliyatiga nisbatan ishonchni shakllantirish. Maktabning jamoatchilik bilan ishlash faoliyati turlari: ota-onalar majlislari, mikrohudud aholisi bilan ishlash, homiyalar bilan ishlash, jamoatchilik tashkilotlari bilan ishlash.

Ta’lim muassasasi o‘z faoliyatini o‘ziga xosligini qanday bildirishi mumkin?

Ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan o‘quv dasturi haqida informatsiya, qo’shimcha ta’lim xizmatlari narxi haqida ma'lumot, malakali pedagoglar va qo’shimcha sharoitlar haqida informatsiya, ta’lim muassasasi o‘quv jarayoni haqida ma'lumot, muassasaning psixologik muhiti haqida, pedagog va o‘quvchilarning yirik loyihalari va muvaffaqiyatlari haqida ma'lumot berish orqali.

Farzandini maktabga bermoqchi bo‘lgan ota-onalar e’tiborini aynan bizning muassasamizga qanday jalg etish mumkin?

Ota-onalarning xohish-istiklariga javob berish orqali:





Uyimizga yaqin bo'lsin, gigiyenik sharoit va qulayliklarga ega bo'lsin, dars jadvali, o'quv rejasining o'ziga xosligi, pedagogik jamoaning samimiyligi, hududdagi obro'li, nufuzli va sarasi bo'lsin va shu kabilar.

Muvaffaqiyatli jamoatchilik bilan ishlash (PR) faoliyatining tamoyili - turli toifadagi talabgorlarning ta'lism xizmatlariga nisbatan ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Maqsadli jamoatchilik bilan ishlash (PR) faoliyatining natijaviyligi esa –

O'quvchilarning muassasadagi shaxsiy talablari qondiriladi;

Taklif qilinayotgan yuqori sifatli ta'lism xizmatlariga nisbatan jamoatchilik fikri shakllanadi;

Pedagogik jamoa va ishchi xodimlarning mavjud sharoitdan qoniqishlari;

Yuqori sifatdagi ta'lism.

Muassasada jamoatchilik bilan ishlash (PR) faoliyati yuqori natijaga erishishi uchun qanday tizimni yaratish lozim? Maktabning jamoatchilik bilan ishlash (PR) faoliyati: ota-onalar uchun ped-psixologik o'quv kurslari tashkil qilish, oav bilan ishlash, ma'naviy va ko'rgazmali tadbirlar faoliyati, tm taqdimoti, turli tashkilotlar bilan hamkorlik. Jamoatchilik bilan ishlash (PR) faoliyati yo'nalishlari: Korporativ PR (muassasa imijini shakllantiradi) Marketing faoliyatini o'rganish:

Ta'lism muassasasingizni qanday ko'rishni xohlardingiz?

Buning uchun bizda qanday imkoniyatlar bor?

Maktab qayerda joylashgan?

Ota-onsa va o'quvchilar kontingenti qanday?

Ota-onalar ishonchi: Muassasada bolaga sifatli ta'lism beriladi, qo'llab-quvvatlanadi, tushuniladi va xafa qilinmaydi.

Ta'lism xizmatlarining asosiy iste'molchisi bo'lgan ota-onalar «tili»da gapiring: Ochiq ta'lism, ota-onalar uchun har qanday vaqtda, istagan dars mashg'ulotiga kirish imkonini yarating, muassasa rahbariyatining ommaviy chiqishlari, muassasaning ramzlari, atributlari va an'analarining mavjudligi, rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish, ayniqsa, taqdirlangan o'quvchilarni.

OAV bilan ishlash. Yangiliklar almashish: ijtimoiy ahamiyatlilikka urg'u berish, bilimlar kuni va so'ngi qo'ng'iroq, chet el olimlari bilan uchrashuvlar, bellashuvlar, ko'rgazma-lar, muzeylar faoliyati. OAV bilan o'zaro hamkorlik: axborot xizmatini tashkil etish, oavga axborotlar taqdim etish, jurnalistlarni taklif etish. Axborot manbaalari, ta'lism muassasasi haqidagi ommaviy ma'lumotlarni kengaytirishga imkoniyatlar yaratishda foydalanish: tm tarixi haqidagi faktlardan foydalanish, tm tashkil etilishi, rivojlana borishi, xodimlari va o'quvchilari hayotidagi qiziqarli va takrorlanmas voqeliklar, faxriylar xotirasi, o'quv jarayonidan tasvirlar va videolavhalar.

Yuqori tashkilotlar, homiylar va jamoatchilik bilan aloqalar. "Jamoatchilik" tushunchasi (TMga nisbatan): tm joylashgan hudud aholisi, yuqori tashkilotlar, o'quv-

tarbiya jarayoniga bog'liq vakolatdagi turli jamoatchilik tashkilotlari, tm pedagogik jamoasi, o'quvchilar ota-onalari va vasiylari, OAV.

Homiylar bilan ishlash: turli tadbirlarga homiylarni taklif qilish, muassasa saytini yaratish, homiylar ishtirokida, barcha bayramlarda rahbariyat va jamoani qutlash, homiylar ishtirokida ko'chma konsertlar, ekskursiyalar tashkil qilish, homiylik yordam va hamkorligi haqida intervyularda minnatdorchilik bildirish....

PR tadbirlarini o'tkazish. Ijtimoiy ahamiyati yuqori tadbirlar o'tkazish, OAVga axborotlar berib borish: bellashuvlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar, konferentsiya va davra suhbatlari, sport tadbirlari, jamoaviy yig'inlar, kontsert tadbirlari, ota-onalar yig'inlar, ochiq eshiklar kuni, sobiq maktab o'quvchilari bilan uchrashuvlar...

TMning veb-sayti. TM haqida informatsiya: ta'lim xizmatlari bozorida tm ijobiy imiji, taklif qilinayotgan xizmatlar haqida ma'lumot, muvaffaqiyatli raqobat haqida ma'lumotlar berish, pedagoglar saytini yuritish. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan aloqalar: forumlar, loyihamalar, virtual tarzda ota-onalar bilan suhbat, mакtabning elektron shakli, turli tm bilan hamkorlik, internet loyihamarda qatnashish... Zamonaviy axborot texnologiyalarining va axborot almashinuvining keskin rivojanishi natijasida interaktiv ta'lim jarayonining o'sib borish imkon kengaydi. Ma'lumotlar uzatish chegarasining kengaya borishi va uning jahon standarti darajasiga ko'tarilishi ta'lim muassasasi uchun alohida maqom bo'lajak.

Xalqaro hamkorlik. Pedagog va o'quvchilar ishtiroki: xalqaro olimpiada va konkurslar, ilmiy-amaliy konferentsiya va o'quvlar, festival, loyihamalar namoyishi madaniy-ta'llimi loyihamalar, guruhlarda ish tajriba va madaniyatlar almashinuvi, internet faoliyatidagi loyihamarda ishtirok etish.

Bugungi kunda ta'lim xizmatlari iste'molchilari, hamkor tashkilotlar va keng jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlovchi va ta'lim muassasasini qo'llab-quvvatlovchi bir tizim – jamoatchilik bilan ishlash (PR) faoliyatini ma'lum ma'noda ta'lim muassasasi boshqaruvi sifatida ham qarash mumkin. Məktabning jamoatchilik bilan ishlash faoliyati: TMning raqobat bozoridagi sababi, TMning jamoatchilik fikrini o'rganish va ularga mos taklif berish tizimi, Boshqaruv faoliyatiga jamoatchilikni qiziqtira olish, TMning turli tendentsiyalar va o'zgarishlarni oldindan ko'ra olish yo'lidi.

Ijtimoiy kommunikatsiya – bu axborotni bir odamdan boshqa odamga uzatish jarayoni. "Nutqini boshqara olmagan odam rahbar bo'la olmaydi" (Napoleon).

Menejerning ishfaoliyatidagi muloqt jarayonini samarali tashkil qilish usullari. Muloqot uchun qulay joy yaratish.

Sizning menejer sifatidagigi vazifangiz – sizning jamoangizda axborot almashish jarayoni aniq va uzlusiz bo'lishiga ishonch hosil qilish.





CANADA



CANADA

His-tuyg‘ularni ifodlash va g‘oya almashishda to‘sqliarga yo‘l qo‘ymaslik. Aksincha, buni rag‘batlantirish. Siz robotlar emas, balki insonlar bilan ishlaysiz. Xonangiz eshigini ochiq saqlang. Ochiq eshik siyosati ishchilaringiz istagan vaqtlarida siz bilan muloqotga kirisha olishlari mumkin ekanligini eslatib turadi. Xodimlaringiz bilan yillik va choraklik muloqotning o‘rniga har oyda yakka xolda uchrashishni reja qiling, bu orqali esa xodimingizning rivojlanish darajasi, mehnat faoliyatida o‘zlarini qanday xis qilayotganligi va sizdan nima istayotganlari haqida bilib olishingiz mumkin.